XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QAROR

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko‘chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2023 - yil 30 - dekabr VI-64-214-8-117-K/23 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-81-232-8-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni rahbarlik, ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun)ga muvofiq, Termiz tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 70 mlrd. 181 mln. 300 ming so‘m, xarajatlari 131 mlrd. 110 mln. 742 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda yuqori budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 60 mlrd. 929 mln. 442 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Termiz tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

4. 2024-yil uchun Termiz tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi byudjet tashkilotlari va muassasalariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

5. 2024-yil uchun Termiz tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlar bo‘yicha tuman mahalliy budjeti taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Termiz tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd. 163 mln. 259 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Termiz tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Termiz tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2024-yil uchun Termiz tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qonunga asosan 2024-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar tuman budjetiga to‘liq taqsimlanadi:

- **aylanmadan soliq;**
- **yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i;**
- **jismoniy shaxslarning yer solig‘i;**
- **jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;**

- **yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ;**
- **noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;**
- **ijara to‘lovlari;**

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

- **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;**
- **suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari);**
- **benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i;**
- **yuridik shaxslar yer solig‘i;**
- **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar**
- **qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950,3 450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar;**

11. Termiz tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O.Yakubov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Abdusalomov), soliq inspeksiyasi (K.Raxmonov) birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (K.Raxmonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Termiz tuman bo‘limi (O.Sadatov), tuman soliq inspeksiyasi (K.Raxmonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

14. Tuman ichki ishlar boshqarmasi (O‘.Mustafaqulov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Rasulov), majburiy ijro byurosi Termiz tuman bo‘limi (O.Sadatov), tuman Adliya bo‘limi (B.Ashurov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi

hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

16. Tuman hokimligiga (O.Yakubov)ga:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etilsin.

17. Tuman hokimining tarmoqlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va tegishli aloqador tashkilot rahbarlari mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

18. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (O.Yakubov) va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga

chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Tuman hokimligi Axborot xizmati (lavozimiga ko‘ra) va “Janub quyoshi” gazetasi tahririyati mazkur qarorni ijtimoiy tarmoqlar hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Yuqorida berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari Termiz tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

21. Mazkur qarorning bajarilishini tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (O.Yakubov), ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Naimov) zimmasiga yuklansin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengash raisi **SH.X.Nazarov**

Xalq deputatlari Termiz tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	70 181 300,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0		
2	Aylanmadan soliq	7 112 000,0		
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 508 800,0		
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	769 000,0		
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0		
6	Aksiz solig‘i, jami	6 443 000,0		
	shu jumladan:	0,0		
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*6 443 000,0*		
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 351 000,0		
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 757 000,0		
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 468 000,0		
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 307 000,0		
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	20 000,0		
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	785 500,0		
13	Davlat boji	0,0		
14	Yig'imlar	2 560 000,0		
15	Jarimalar	0,0		
16	Ijara to‘lovi	100 000,0		
17	Davlat mulkini xususiylashtirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	0,0		
	Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	**60 929 442,0**		
Daromadlar hammasi		**131 110 742,0**		

Xalq deputatlari Termiz tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Termiz tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘ ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**131 110 742,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**131 110 742,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
	Tuman va tuman mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha va Maktab ta'lim bolimi**	**14 183 985,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 183 985,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
2	**Sog‘liqni saqlash muassasalari xarajatlari**	**57 987 745,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	57 987 745,0
3	**Madaniyat bo‘limi muassasalari xarajatlari**	**2 917 837,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 917 837,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
4	**Yoshlar siyosati va sport bo'limi xarajatlari**	**7 034 752,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 034 752,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
5	**Tuman Hokimligi (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**14 334 538,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 334 538,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
6	**Davlat hokimiyat boshqaruv organlari muassasalari xarajatlari**	**27 714 298,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	27 714 298,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital quyilmalar	
7	**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi**	**3 688 718,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 688 718,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**179 739,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	179 739,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Irrigatsiya tizimidagi tashkilotlariga**	**1 836 097,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 836 097,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi**	**1 233 033,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 233 033,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	Termiz tumani	100	100	100	100	40	50	100	100	100	50	100	100	50	50

Izoh: * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Termiz tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
4-ilova

Termiz tuman mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**70 181 300,0**	**131 110 742,0**
Termiz tuman	70 181 300,0	131 110 742,0

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
5-ilova

Termiz tumani mahalliy budjetiga 2024-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shaxar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori jami**	*shundan, aksiz soligi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar**
JAMI	**60 929 442,0**	**14 291 762,0**
shundan		
Termiz tuman	60 929 442,0	14 291 762,0

*tamaki, alkagol mahsulotlari shu jumladan, pivo(import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar

Xalq deputatlari Termiz tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-64-214-8-117-K/23-son qaroriga
6-ilova

Termiz tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/R	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**767 980,0**
	shundan	
1	Termiz tuman	767 980,0